

Date: 13th December-2025

MAKTABGACHA TA'LIMDA RAHBARLIK FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Kuchmuradova Barnoxon Sobitaliyevna.

Toshkent shahridagi Puchon Universiteti magistranti.

Email: bkuchmurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatini takomillashtirishda innovatsion boshqaruv texnologiyalarining ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv kompetensiyasi, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari tahlil qilinadi. Innovatsion boshqaruv texnologiyalarining ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va tashkilot faoliyatini rivojlantirishga ta'siri asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, rahbarlik faoliyati, boshqaruv kompetensiyasi, innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv, ta'lim sifati, menejment, samaradorlik, monitoring

ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ РУКОВОДЯЩЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается значение инновационных управленческих технологий в совершенствовании руководящей деятельности в системе дошкольного образования. В исследовании анализируются управленческая компетентность руководителя дошкольной образовательной организации, современные подходы к управлению и возможности цифровых технологий. Обосновывается влияние инновационных технологий управления на качество образования, эффективность управленческой деятельности и развитие образовательной организации. решений.

Ключевые слова: дошкольное образование, руководящая деятельность, управленческая компетентность, инновационные технологии, цифровое управление, качество образования, менеджмент, эффективность, мониторинг

THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN
IMPROVING LEADERSHIP ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation: This article examines the importance of innovative management technologies in improving leadership activities in the preschool education system. The study analyzes the management competence of preschool organization leaders, modern management approaches, and the possibilities of digital technologies. The impact of innovative



Date: 13th December-2025

management technologies on the quality of education, management efficiency, and institutional development is substantiated. Special attention is paid to the role of modern information and communication tools, digital monitoring systems, and interactive management platforms in leadership activities.

Key words: preschool education, leadership activity, management competence, innovative technologies, digital management, education quality, management, efficiency, monitoring

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimi jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi shaxs kamolotining boshlang'ich va eng muhim bosqichi bo'lib, unda bolalarning intellektual, ma'naviy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish, rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini yuksaltirish hamda zamonaviy innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

So'nggi yillarda ta'limni boshqarishda innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli boshqaruv tizimlari va monitoring mexanizmlarining joriy etilishi boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining faoliyati nafaqat ma'muriy boshqaruv bilan cheklanib qolmay, balki strategik rejalashtirish, jamoani boshqarish, ta'lim sifatini monitoring qilish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishni ham o'z ichiga oladi. Shu bois rahbarlik faoliyatini zamonaviy innovatsion boshqaruv texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida raqamli boshqaruv, elektron hujjat aylanishi, masofaviy monitoring, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, interaktiv boshqaruv platformalari kabi innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar rahbarning boshqaruv faoliyatini yengillashtirish, qaror qabul qilish jarayonini tezkor va aniq amalga oshirish, ta'lim jarayonini samarali nazorat qilish hamda tashkilot faoliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori zamonaviy menejer sifatida nafaqat boshqaruv texnologiyalarini bilishi, balki ularni amaliyotga joriy etish, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim. Rahbarlik faoliyatini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda tashkilotda sog'lom kommunikativ muhitni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'limda rahbarlik faoliyatini takomillashtirishda innovatsion boshqaruv texnologiyalarining ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish, ularning boshqaruv jarayonlariga ta'sirini tahlil qilish hamda amaliy jihatdan samarali qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masalalarni yoritish, innovatsion boshqaruv texnologiyalarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'рни va ahamiyatini tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Date: 13th December-2025

MAVZU DOLZARBLIGI

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-595, 16.12.2019)da¹ maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini muntazam rivojlantirib borish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ushbu qonunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarish, boshqaruv tizimining ochiqligi, shaffofligi va natijadorligini ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlangan. Mazkur holat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining rahbarlik faoliyatini zamonaviy innovatsion boshqaruv texnologiyalari asosida takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son Qarori (22.12.2020)da² maktabgacha ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim sifatini raqamli monitoring asosida baholash, boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish muhim talablar sifatida belgilangan. Ushbu standart talablari ijrosining samaradorligi bevosita maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish salohiyatiga bog'liq bo'lib, rahbarlik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-637, 23.09.2020)da³ ta'lim tizimini raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Ushbu qonun talablari asosida maktabgacha ta'lim tizimida ham innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish zarurati yanada kuchayib bormoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori faoliyatida raqamli boshqaruv, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlaridan foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son⁴ Farmonida esa maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifati va qamrovini kengaytirish, boshqaruv jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini oshirish bo'yicha aniq strategik vazifalar belgilab berilgan. Farmonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning samaradorligini oshirish, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish orqali rahbarlik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4646908> Murojaat qilindi: 08.12.2025

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5179335>. Murojaat qilindi: 08.12.2025

³ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>. Murojaat qilindi: 08.12.2025

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-152. <https://lex.uz/uz/docs/-7128182>. Murojaat qilindi: 08.12.2025



Date: 13th December-2025



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025-yilda o'tkazilgan maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid yig'ilishda⁵ ham maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv kompetensiyasi va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori faqatgina ma'muriy boshqaruvchi emas, balki zamonaviy menejer, innovator va strateg sifatida faoliyat yuritishi talab etilmoqda. U ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini belgilash, ta'lim sifatini boshqarish, pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etish hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga joriy etish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu jihatdan qaraganda, rahbarlik faoliyatini innovatsion boshqaruv texnologiyalari asosida takomillashtirish bugungi kunning obyektiv zarurati hisoblanadi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish va boshqaruv samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Shu sababli "Maktabgacha ta'limda rahbarlik faoliyatini takomillashtirishda innovatsion boshqaruv texnologiyalarining ahamiyati" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borish bugungi ta'lim islohotlari nuqtayi nazaridan nihoyatda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv va rahbarlik faoliyatini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, D.R. Babayeva, G.X. Jumasheva va M.A. Abdullayevalarning⁶ "Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari" nomli darsligida maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy-amaliy asoslari, yo'nalishlari, shakllari, vositalari va metodlari kompleks yoritilgan. Mualliflar maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyatini tizimli boshqaruv nuqtayi nazaridan ochib berib, rahbarlikda rejalashtirish, nazorat, tahlil va monitoring funksiyalarining o'rnini asoslab berganlar. Ushbu manba tadqiqotimiz uchun fundamental nazariy asos vazifasini bajaradi. Shu mualliflar tomonidan tayyorlangan 2021-yildagi o'quv qo'llanmada⁷ ham maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy-amaliy yo'nalishlari chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda zamonaviy boshqaruv texnologiyalariga kirish, innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ham yoritilgan.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yilgi maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar to'g'risidagi qarorlar yig'ilishi bayonoti. <https://president.uz/oz/lists/view/8471>. Murojaat qilindi: 08.12.2025

⁶ Babayeva, D. R., Jumasheva, G. X., & Abdullayeva, M. A. (2023). Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari. Toshkent.

⁷ Babayeva, D. R., Abdullayeva, M. A., & Jumasheva, G. X. (2021). Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy-amaliy yo'nalishlari. Toshkent: Ilm-ziyo zakovat.

Date: 13th December-2025

Ushbu qo'llanmada rahbarlik faoliyatida qo'llaniladigan metodlar bilan bir qatorda, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv vositalari ham ko'rsatib o'tiladi.

2020-yilda Buxoroda o'tkazilgan "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar: istiqbollar, muammolar va yechimlar"⁸ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy rivoji masalalari atroflicha tahlil qilingan. Ushbu to'plamda boshqaruv kompetensiyasining zamonaviy talablari, rahbarlik faoliyatini takomillashtirishga oid ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir.

L.J. Toxirovaning (2024)⁹ maktabgacha ta'lim yo'nalishida bajarilgan bitiruv malakaviy ishida bo'lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi yoritilib, unda rahbarlik va boshqaruvning pedagogik jarayonga bevosita ta'siri asoslab berilgan. Mazkur ish maktabgacha ta'limda boshqaruvning tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Shaxsiy rivojlanish va rahbarlik madaniyatiga doir manbalar, jumladan, Sh.Razzoqovning¹⁰ "Rahbarlik san'ati" asarida rahbar shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlari, liderlik fazilatlar va boshqaruv uslublari yoritilgan. Shuningdek, S. Mirzohidovning¹¹ "Boshqaruv san'ati" asari zamonaviy menejment yondashuvlarini ochib berishi bilan ahamiyatlidir. D. Karnegiyning¹² "Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish" asari esa rahbarlikda kommunikatsiya va insonlar bilan ishlash madaniyatining muhimligini ochib beradi.

Xorijiy tadqiqotlar orasida Mulyaniapi, Permana va Nurdinning (2024)¹³ "Digital Leadership Influencing the Capabilities of Early Childhood Education Organizations" nomli maqolasida raqamli liderlikning maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga ta'siri strukturaviy tenglamalar modeli asosida isbotlab berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli rahbarlik bilan tashkilot imkoniyatlari o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ljunggren va Moen (2019)¹⁴ Norvegiya tajribasi asosida erta ta'limda liderlikning o'zgaruvchan sharoitga moslashuvi muammolarini tahlil qilgan. Milek (2024)¹⁵ maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar ta'lim sifati oshishiga bevosita ta'sir

⁸ Kamilova, G. A. (Bosh muharrir). (2020). Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar: istiqbollar, muammolar va yechimlar. Buxoro.

⁹ Toxirova, L. J. (2024). Bo'lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi (Bitiruv malakaviy ishi). Toshkent.

¹⁰ Razzoqov, Sh. (2017). Rahbarlik san'ati. Toshkent: Lesson Press.

¹¹ Mirzohidov, S. (2024). Boshqaruv san'ati. Globe Edit.

¹² Carnegie, D. (2010). Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish (F. Namozov, tarj.). Toshkent: Yangi asr avlodi.

¹³ Mulyaniapi, T., Permana, J., & Nurdin, D. (2024). Digital Leadership Influencing the Capabilities of Early Childhood Education Organizations. *Mimbar Sekolah Dasar*, 11(1), 78-102.

¹⁴ Ljunggren, B., & Moen, K. (2019). Implementing the Norwegian framework plan: Organizational and leadership translation strategies. In *Leadership in early education in times of change* (pp. 187-200).

¹⁵ Milek, K. (2024). Innovation in Preschool and Early School Education. *Pedagogi: Jurnal Ilmu Pendidikan*, 24(1), 134-140.

Date: 13th December-2025

ko'rsatishini asoslab bergan. Naida va hammualliflar (2024)¹⁶ esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni tayyorlash dasturlariga integratsiya qilishning samaradorligini qiyosiy tahlil asosida ochib bergan.

Umuman olganda, tahlil qilingan manbalar maktabgacha ta'limda rahbarlik faoliyati, boshqaruv kompetensiyasi va innovatsion texnologiyalarning o'zni muhim ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, aynan innovatsion boshqaruv texnologiyalarining rahbarlik faoliyatiga kompleks ta'sirini tizimli yorituvchi tadqiqotlar yetarli emasligi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbarlik faoliyati ko'p qirrali, murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Rahbar faoliyati nafaqat ma'muriy boshqaruv, balki pedagogik jarayonlarni muvofiqlashtirish, jamoani boshqarish, rivojlanish strategiyasini belgilash, ta'lim sifatini nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish kabi vazifalarni ham qamrab oladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatini takomillashtirish zamonaviy ta'lim rivojining muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbaridan an'anaviy boshqaruv usullari bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi. Innovatsion boshqaruv texnologiyalari deganda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, qaror qabul qilishni tezlatish, ta'lim sifati ustidan monitoringni kuchaytirish, elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yish, masofadan turib boshqaruv elementlarini joriy etish kabi zamonaviy yechimlar tushuniladi. Ushbu texnologiyalar rahbarning vaqtini tejash, boshqaruvni aniqlik va shaffoflik asosida olib borish hamda inson omili ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish rahbarning kasbiy kompetensiyasini yanada rivojlantiradi. Rahbar strategik fikrlash, muammoni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish, jamoani motivatsiyalash va zamonaviy raqamli vositalardan unumli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birga, rahbarning kommunikativ kompetensiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u pedagoglar, ota-onalar, davlat organlari va boshqa hamkorlar bilan samarali muloqotni tashkil etishi lozim.

Innovatsion boshqaruv texnologiyalari rahbarlik faoliyatida rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va tahlil jarayonlarining barchasiga samarali joriy etilishi mumkin. Masalan, elektron rejalashtirish tizimlari yordamida istiqbol va joriy rejalarni aniq belgilash, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali ta'lim sifati ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, interaktiv platformalar yordamida pedagoglar faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa boshqaruv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

¹⁶ Naida, R., Berezovska, L., Bulgakova, O., Kravets, N., & Savchenkova, M. (2024). Integrating Innovative Pedagogical Technologies into Early Childhood Education Training Programs. *Conhecimento & Diversidade*, 16(41), 568-595.



Date: 13th December-2025

Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv texnologiyalarining muvaffaqiyatli joriy etilishi rahbarning shaxsiy innovatsion salohiyati va o'zgarishlarga bo'lgan ochiqqligiga ham bevosita bog'liq. Agar rahbar zamonaviy texnologiyalarga ijobiy munosabatda bo'lsa, ularni tez o'zlashtirsa va jamoani ham shunga ruhlantira olsa, maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyati tubdan o'zgaradi. Bunday tashkilotlarda boshqaruv samaradorligi oshadi, pedagoglar faoliyati faollashadi, ta'lim sifati va natijadorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga joriy etish rahbarlik faoliyatining mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Hozirgi kunda ko'plab tashkilotlarda elektron hujjat aylanishi, raqamli rejalashtirish, onlayn monitoring, masofaviy muloqot vositalari faol qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar rahbarning kundalik ish jarayonini soddalashtiribgina qolmay, balki boshqaruv jarayonining aniqligi, tezkorligi va samaradorligini ta'minlamoqda. Innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifati oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali bolalarning rivojlanish darajasini muntazam kuzatib borish, pedagoglar faoliyatini tizimli tahlil qilish, kamchiliklarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa rahbarning boshqaruv qarorlarini asosli va aniq dalillarga tayanib qabul qilishiga yordam beradi. Rahbarlik faoliyatini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalar jamoani boshqarish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Raqamli platformalar orqali pedagoglar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning faoliyatini baholash, rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish mumkin. Shu orqali jamoada sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, pedagoglarning kasbiy faolligi oshadi, ularning o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishi kuchayadi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini qo'llagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Rahbarning nazorat funksiyasi kuchayadi, ta'lim jarayonidagi kamchiliklar tezroq aniqlanadi, muammolarga operativ yechimlar topiladi. Natijada ta'lim sifati yaxshilanadi, bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari oshadi va tashkilotning umumiy faoliyati barqarorlashadi.

XULOSA: Maktabgacha ta'limda rahbarlik faoliyatini takomillashtirishda innovatsion boshqaruv texnologiyalarining ahamiyati bugungi ta'lim islohotlari sharoitida yanada ortib bormoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy raqamli boshqaruv vositalari, elektron monitoring tizimlari va interaktiv boshqaruv platformalari rahbarlik faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini asosli va tezkor qabul qilish imkonini bermogda. Innovatsion texnologiyalar rahbarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi, jamoa bilan samarali hamkorlikni ta'minlaydi va ota-onalar bilan aloqa sifatini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4646908> Murojaat qilindi: 08.12.2025



Date: 13thDecember-2025



2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-5179335>. Murojaat qilindi: 08.12.2025
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007> . Murojaat qilindi: 08.12.2025
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-152. <https://lex.uz/uz/docs/-7128182>. Murojaat qilindi: 08.12.2025
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yilgi maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi qarorlar yig‘ilishi bayonoti. <https://president.uz/oz/lists/view/8471>. Murojaat qilindi: 08.12.2025
6. Babayeva, D. R., Jumasheva, G. X., & Abdullayeva, M. A. (2023). Maktabgacha ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari. Toshkent.
7. Babayeva, D. R., Abdullayeva, M. A., & Jumasheva, G. X. (2021). Maktabgacha ta’limni boshqarishning ilmiy-amaliy yo‘nalishlari. Toshkent: Ilm-ziyo zakovat.
8. Kamilova, G. A. (Bosh muharrir). (2020). Maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuvlar: istiqbollar, muammolar va yechimlar. Buxoro.
9. Toxirova, L. J. (2024). Bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi (Bitiruv malakaviy ishi). Toshkent.
10. Razzoqov, Sh. (2017). Rahbarlik san’ati. Toshkent: Lesson Press.
11. Mirzohidov, S. (2024). Boshqaruv san’ati. Globe Edit.
12. Carnegie, D. (2010). Do‘st orttirish va odamlarga ta’sir ko‘rsatish (F. Namozov, tarj.). Toshkent: Yangi asr avlodi.
13. Mulyaniapi, T., Permana, J., & Nurdin, D. (2024). Digital Leadership Influencing the Capabilities of Early Childhood Education Organizations. *Mimbar Sekolah Dasar*, 11(1), 78-102.
14. Ljunggren, B., & Moen, K. (2019). Implementing the Norwegian framework plan: Organizational and leadership translation strategies. In *Leadership in early education in times of change* (pp. 187-200).
15. Miłek, K. (2024). Innovation in Preschool and Early School Education. *Pedagogi: Jurnal Ilmu Pendidikan*, 24(1), 134-140.
16. Naida, R., Berezovska, L., Bulgakova, O., Kravets, N., & Savchenkova, M. (2024). Integrating Innovative Pedagogical Technologies into Early Childhood Education Training Programs. *Conhecimento & Diversidade*, 16(41), 568-595.